



Kommunal to'lovlar

Yangilangan sana: Chr, Iyun, 13, 2018

Poytaxtimiz va Respublikamizning barcha viloyat markazlarida Xalq bankining jamg'arma, kommunal va maxsus kassalarining keng tarmog'i faoliyat yuritadi.

Bank jamg'arma, kommunal va maxsus kassalarining joylashuvi aholi uchun maksimal qulaylik yaratilishiga mo'ljallangan. Shuning uchun Toshkent shahrining gavjum tuman va dahalarida, respublikamizning viloyat markazlarida bank kassalari ochilgan. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida elektr va issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, kommunal va boshqa xizmatlar uchun to'lovlarni yig'ish xizmatlaridan foydalanuvchilarning yashash joyi bo'yicha bankning sayyor kassalari orqali taqdim etish ishlari tashkil etilgan.

Aholidan davlat va tijorat korxonalar, o'z-o'zini boshqarish organlari, muassasalar va tashkilotlarning foydasiga kommunal va boshqa pullik xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qilish yuzasidan operatsiyalar bank filiallarining istalgan kommunal, maxsus va jamg'arma kassalarida, to'lovchining yashash manzilidan va to'lovlarni oluvchi tashkilotlarning hisobraqamlari qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi mumkin.

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki filiallari infratuzilmalarida (jamg'arma, kommunal va maxsus kassalar) aholidan quyidagi to'lov turlari qabul qilish yo'lga qo'yilgan.

1. Kommunal to'lovlar:

- Elektr energiya;
- Issiqlik energiyasi va issiq suv;
- Sovuq suv;
- Tabiiy gaz;
- Maishiy chiqindi;
- UJMSH uy-joydan foydalanish to'lovlari.

2. FXDYO va notariuslar tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlar uchun olinadigan to'lovlar:

- davlat boji;
- gerb yig'imi;
- pullik xizmatlar.

3. Soliq to'lovlari:

- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- ijara (deklaratsiya) solig'i.

4. Kredit va foiz to'lovlari.

5. YXXB to'lovlari:

- jarimalar;

- avtoulavlarni ro'yxatga olish;
- avtoulavlarga davlat raqamini berish;
- avtoulavlarning texnik ko'rigi;
- haydovchilik guvohnomasini olish.

6. Boshqa to'lovlar:

- Sug'urta to'lovlari;
- Bojxona to'lovlari;
- IPTV va kabelli televideniya abonentlik to'lovlari;
- Muqim telefon tarmoqlari uchun to'lovlar;
- Mobil aloqa operatorlari va internet provayderlari uchun to'lovlar;
- "Vatanparvar" korxonasi to'lovlari;
- Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun a'zolik badallari;
- San'at va musiqa hamda sportga ixtisoslashgan maktablar uchun a'zolik badallari;
- Oliy ta'lim o'quv muassasalari kontrakt to'lovlari;
- Muqobil xizmat uchun to'lovlar;
- Aholining bir martalik boshqa to'lovlari.

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «MUNIS» dasturiy majmuasidan bugungi kunda "O'zbekenergo" AJ, "O'ztransgaz" AK, Moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, "UNITEL" MCHJ (Beeline), "RWC" CHK MCHJ (Perfectum) va Uztelecom (Uzmobile) mobil aloqa operatorlari, "Uzdigital" MCHJ (Toshkent shahar va Toshkent viloyati abonentlari uchun), Suvsoz, Toshhissiqquvvati va Maxsustrans korxonalari (Toshkent shahar abonentlari uchun), Tuyamo'yin-Urgench (Xorazm viloyati abonentlari uchun) va "O'zbektelekom" AK hamda "Net television" MCHJ (Fibernet) internet provayderi foydasiga aholidan to'lovlar qabul qilinmoqda.

Ushbu tizim orqali qabul qilingan to'lovlar to'lovchilarning shaxsiy hisobraqamlariga real vaqt rejimida kiritiladi.

"MUNIS" dasturiy tizimi orqali qabul qilinadigan to'lovlar

Kommunal to'lovlar:

- Elektr energiya;
- Issiqlik energiyasi va issiq suv (Toshkent shahri abonentlari uchun);
- Sovuq suv (Toshkent shahri va Xorazm viloyati abonentlari uchun);
- Tabiiy gaz;
- Maishiy chiqindi (Toshkent shahri abonentlari uchun)

Soliq to'lovlari:

- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- dehqon xo'jaliklari uchun yer solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq;
- dehqon xo'jaliklarini suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq;
- daromad bo'yicha (deklaratsiya) solig'i;
- bir martalik deklaratsiya.

Boshqa to'lovlar:

- Bojxona to'lovlari;
- Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun a'zolik badallari;
- San'at va musiqa hamda sportga ixtisoslashgan maktablar uchun a'zolik badallari;
- Oliy ta'lim o'quv muassasalari kontrakt to'lovlari;
- Muqobil xizmat uchun to'lovlari;
- davlat boji;
- gerb yig'imi;
- pullik xizmatlar;
- jarimalar.

Mobil aloqa to'lovlari.

- "UNITEL" MChJ (Beeline);
- "RWC" MChJ CHK (Perfectum);
- "O'zbektelekom" (Uzmobile).
- "Coscom" (Ucell).

Muqim (shahar) telefon va internet to'lovlari:

- "O'zbektelekom" AK (Toshkent shahar va viloyatlar abonentlari uchun).

IPTV va Kabel televideniyesi abonentlik to'lovlari:

- "Net television" MChJ (Fibernet) (Toshkent shahar abonentlari uchun);
 - "Uzdigital" MChJ (Toshkent shahar va Toshkent viloyati abonentlari uchun)
-